

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 56 803,8 mld. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,6 % ga yetdi.



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



■ YAHM o'sish sur'ati

■ YAHM hajmi

■ YAHM deflyator indeksi


■ YAIMga qo'shgan hissasi



Yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

		Mird. so'm		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		2023- yil	2024- yil	
	I. YAHM	48 389,4	56 803,8	106,2
shu jumladan:				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 868,0	55 247,1	106,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 521,4	1 556,7	105,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 868,0	55 247,1	106,3
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16 579,5	18 373,5	104,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11 710,2	14 198,7	108,8
	sanoat	7 837,2	9 865,3	108,0
	qurilish	3 873,0	4 333,4	110,5
	Xizmatlar	18 578,3	22 674,9	106,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6 973,7	8 650,9	109,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 193,2	2 703,2	112,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	9 411,4	11 320,8	103,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 825,0 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 3,9 % ga yuqoridir.



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga soʻsoliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 33,3 % ni, sanoat tarmog’i 17,9 % ni, qurilish 7,8 % ni va xizmatlar sohasi 41,0 % ni tashkil qildi.



**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>
--	------------------	------------------

	I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,9	97,3
	mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	2,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati			
	qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	35,4	33,3
	sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda)	25,0	25,7
	sanoat	16,7	17,9
	qurilish	8,3	7,8
	xizmatlar	39,6	41,0
	savdo, yashash va ovqatlanish	14,9	15,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,7	4,9
	bo‘yicha xizmatlar	20,0	20,4



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



35,4 %

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

3,1 %

16,7 %

Sanoat

8,3 %

Qurilish

39,6 %

Xizmatlar

2024- yil

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

33,3 %

Sanoat

17,9

Qurilish

7,8 %

Xizmatlar

41,0

2,7 %

Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga sofi soliqlar

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,3 %), sanoatda – 108,0 % (17,9 %), qurilishda – 110,5 % (7,8 %), xizmatlar sohasida – 106,6 % ni (41,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,6 % (15,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,0 % (4,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (20,4 %) iborat bo'ldi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

2023- yil

2024- yil



5,6 %

YAHM

6,2 %



3,7 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,1 %



7,7 %

Sanoat

8,0 %



13,9 %

Qurilish

10,5 %



4,6 %

Xizmatlar

6,6 %


YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i – 1,4 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida salbiy – 1,0 f.p.) va xizmatlar sohasi – 2,6 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 1,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 0,3 f.p.)ni tashkil etdi.



6,2 %

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi**



Sanoat



1,3 %

1,4 %

Qurilish



Xizmatlar



2,6 %

0,8 %

**Mahsulotlarga
sof soliqlar**




0,1 %

2024-yil yanvar-sentabr oyi uchun YAHM deflyatori indeksi 2023-yil yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 110,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 116,6 % va xizmatlar sohasida – 114,5 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 39 180,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 33 001,5 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 70,9 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 70,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.



Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd. so‘m

Ulushi, % da



2023- yil


33 001,5

70,4 %

2024- yil

39 180,8

70,9 %



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – ma’lum bir davr mobaynida ma’muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichidir;

Yalpi ishlab chiqarish (YAICH) – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiyligi qiymatidir;

Aholi jon boshiga YAHM – muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo‘silgan qiymat (YaQQ) – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘silgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat byudjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar – mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

YAHM fizik hajm indeksi – o‘tgan yilning shu davr narxlaridagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o‘tgan yilning shu davr amaldagi narxlaridagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

YAHM indeks-deflyatori – hudud iqtisodiyotida narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.